

AP

9-may – Xotira va qadrlash kuni

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:18 (67027)

2015-yil

4-may

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092




O'tmish xotiralar borar olislab,  
**Tinchlik** qo'shiqlari bezar olamni.



**O'TMISHDAN SABOQ CHIQARIB,**  
*kelajakka ishonch  
 bilan yashaylik*

Sermashaqqat hayot yo'limda  
 menga malham bo'lgan  
 buvim Robiyabibining muhim  
 o'rin tutganini alohida aytgim  
 keladi. U kishining ertaklari-yu  
 hikoyalari murg'ak qalbinga  
 taskin berardi. Buvijonim  
 menda so'zga bo'lgan muhab-  
 batni uyg'otgan.



3-bet

# JASORAT, BURCH, MATONAT

Respublikamizda 9-may – Xotira va qadrlash kuni umumxalq bayrami sifatida har yili an'anaviy tarzda nishonlanib kelinayotganiga ham 15 yildan oshdi. Ayniqsa, bu sana mardonavorlik namunasini namoyish etgan yurtdoshlarimiz xotirasiga ko'rsatilayotgan ehtirom, tinch va osuda kunlarimizga shukronalik ramziga aylanib bormoqda.

Ikkinchi jahon urushida jasorat ko'rsatib, xalqimiz asrlar davomida orzu qilgan erkinlik uchun kurashgan qahramonlarimiz xotirasi abadiydir. 1941 – 1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini rag'batlantirish maqsadida ikkinchi jahon urushidagi «G'alabaniy 70 yilligi» esdalik yubiley medalining ta'sis etilishi ayni muddao bo'ldi. Shuningdek, «Xotira va qadrlash kuni»ga bag'ishlangan tadbirlarning «Jasorat, burch, matonat» shiori ostida nishonlanishi mamlakatimizda inson qadrlarining azizligi isbotidir.

## INSON – AZIZ, XOTIRA – MUQADDAS

Xotirlash va qadrlash tushunchalari asl milliy qadriyatlarimizga xos va mos, otoboblarimizdan bizga meros bo'lib qolgan insoniy urf-odatlarimiz, fazilatlarimizga to'liq hamohangligi bilan ahamiyatli.

Poytaxtimiz markazida bunyod etilgan muazzam «Xotira maydoni»da yarim millionga yaqin vatandoshlarimizning aniq ism-shariflari, manzillari, dafn etilgan joylari marmar toshlarga zarhal harflar bilan yozib qo'yilgan. Bundan tashqari, respublika «Nuroni» jamg'armasi homiyiligida 34 jildidan iborat «Xotira kitobi» nashr etildi. Unda 430 mingdan ortiq vatandoshlarimiz taqdiri haqida tegishli ma'lumotlar jamlangan.

Keyinchalik bu xayriy ish davom ettirilib, «Xotira kitobi»ning qo'shimcha uch jildi ham nashr etildi. Bular shu vaqtgacha kitobga kirmagan 16 mingga yaqin xaloskor fidoyilar nomi qayd etildi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda mamlakatimizda 3109 nafar urush qatnashchisi, 69994 nafar front ortida mehnat qilgan faxriylar, shuningdek, 225 mingdan ziyod 80 yoshdan, 44 mingdan ortiq 90 yoshdan, eng quvonarli, 8 ming nafardan ortiq 100 yoshdan oshgan tabarruk keksalar shukronalik bilan umrguzaronlik qilishmoqda. 2015-yil yurtimizda «Keksalarni e'zozlash yili» deb e'lon qilinishi munosabati bilan qabul qilingan Davlat dasturida keksalarning yashash sharoitlarini yanada yaxshilash, boy hayotiy tajribalaridan oqilona foydalanish dolzarb vazifalardan biri ekanligi alohida ta'kidlangani e'tiborlidir.

Zero, nuroniylar bizning faxrimiz, uyimizning fayzi, quvonchi, xonadonlarimiz obodligidir. Ularni hamisha e'zozlash, qadrlash farzandlik burchimizdir.

O'z muxbirimiz

### URUSH KO'RGAN BOBO



Urush va mehnat faxriysi Qodir ota Ernazarov turmush o'rtog'i va evarasi bilan.

Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi ustoz Qodir bobo Ernazarov to'qson yoshda.

Bobo nabirasi Muhammadjonning qistovi bilan mash'um urush xotiralarini so'zlaganida, «Hech qachon urush bo'lmasin, o'g'lim», deb qo'yadi o'yg'a cho'mib. «Xotira va qadrlash kuni» arafasida oliyoghlarda talabalarga tarix fanidan saboq bergan hurmatli ustoz, «Jasorat» medali va «G'alabaniy 70 yilligi» esdalik yubiley medali

sohibi Qodir bobo Ernazarov bilan suhbatlashdik:

– Men ikkinchi jahon urushining azob-uqubati va dahshatlarini boshimdan kechirganman, – deb o'z hikoyasini boshladi Qodir ota. – Urush o'z nomi bilan urush. O'q ovozi eshitilib turgan joydan xayr-baraka ham, xotirjamlik ham ko'tariladi, unib-o'sish, taraqqiyot bo'lmaydi. Bugun yurtimizda tengsiz o'zgarish va yangiliklar yuz ko'rsatib, xalqimiz o'z qo'li bilan buyuk kelajagini yaratayotgan ekan, buning zamirida eng avvalo, tinchlik va osoyishtalik yotgani hech kimga sir emas.

Biz nishonlayotgan «Xotira va qadrlash kuni» esa insonga cheksiz e'tibor ko'rsatish, uning xotirasini e'zozlashga qaratilgani bilan qimmatlidir. Ayniqsa, bu bayramning tarbiyaviy ahamiyati beqiyos. Yosh avlod bugungi savob va xayrli ishlardan ibrat oladi, ertaga kattalarni hurmat qilish, inson xotirasini e'zozlashni o'rganadi.

Boboning so'zlarini tinglar ekanmiz, uning salkam bir asrga guvoh bo'lgan ko'zlarida, cheksiz mehrga to'la qalbida dorilamon kunlardan qoniqish hosil qilib yashayotganlik tuyg'usini his qildik.

Feruz RAZZOQOVA

### TINCHLIGIMIZ QO'RG'ONI ULAR

«Qarisi bor uying parisi bor» deydi dono xalqimiz. Ha, albatta, ular bor ekan, qut-baraka, tinchlik-totuvlik, quvonch-u xotirjamlik, ezgulig-u yaxshi amallar xonadonimizdan aslo arimaydi.

Ularning tillarida yangragan shirin so'zlar-u, foydaga kon bo'lgan maslahatlari insonning yo'lini va dilini nurafshon qiladi. O'zbek oilalarini buvijon va buvajonlarsiz tasavvur qilish qiyin. Shunday ekan, ularga hurmat va e'tibor ko'rsatishimiz, mehr berishimiz barchamizga ham farz, ham qarzdur. Ushbu yilning «Keksalarni e'zozlash yili» deb e'lon qilinishi yurtimizda qariyalarga bo'lgan hurmat-e'tibor, mehr-muruvvat, ehtiromning yanada kuchayganligidan darak beradi.

Mazkur yildan kutilayotgan natijalar ham talaygina. Avvalo, qariyalarimizning sog'lik-salomatliligini, yashash sharoitlarini yanada yaxshilash, qariyalarga ularning dini, irqi va kelib chiqishidan qat'iy nazar mehr-muruvvat qo'llarini cho'zish va bu borada ijobiy natijalarni qo'lga kiritishdir.

Mehrimiz tufayli qariyalarimizning chehralaridan tabassum, qalblaridan quvonch arimasin. Keksalarimiz uyimiz va tinchligimizning qo'rg'onlaridir. Biz ularning tinch, osoyishta, serquyosh o'lkada kechirayotgan mazmunli umrlariga umr qo'shilishiga tilakdoshmiz.

Nodira ARSLONOVA

Navoiy viloyatining Karmana tumani, Do'rmon mahallasida istiqomat qilayotgan 96 yoshli Pirnazar ota Turdiyev ikkinchi jahon urushining Berlin uchun bo'lgan og'ir janrlarida qatnashib, 1946-yilda ona yurtiga medallar bilan qaytdi.

### UMR MAZMUNI

Avval jamoa xo'jaligida tabelchi, keyin temirchi bo'lib ishlagan mehnat faxriysi hozirda qator nevara-chevaralari ardod'ida keksalik gashтини surib kelmoqda.

– O'sha yillarni eslasam, etim junjikib ketadi. Turmush sharoiti og'ir, hayot kechirish qiyin edi. Bugungi tinch, farovon zamonda yashayotgan har bir kunimizga shukronalar aytisak, arziydi. Yurtimiz tinch, mamlakat obod, xalqimiz to'q. Ana shu tinch-osuda hayotimiz, osoyishtalimiz bardavom bo'lsin, – deydi duoga qo'l ochib otaxon.

Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylariga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik va e'tibor barcha ko'ngillarni tog'dek ko'tarmoqda. Zero, e'zoz ila ehtirom keksalar umrini barakali qiladi.

Muhammadjon MAHMUDOV



### BOBOMIZ – FAXRIMIZ

Dunyoda buvasi-yu buvisini yaxshi ko'rmaydigan bola topilmasa kerak. Biz ham bobomizni juda yaxshi ko'ramiz. Bayramlar arafasida buvajonimizning sovg'a-salomlar bilan uyimizga kirib kelishiga o'rganib qolganmiz. Bu sovg'alar ichida, albatta, turli xildagi badiiy kitoblar bo'lishini bilganimiz uchun, intiq bo'lib kutamiz.

Bobomiz ma'rifati insonlarni yaxshi ko'radi. Shu bois bo'lsa kerak, yangi o'quv yili oldidan bizni barcha turdagi o'quv qurollari bilan bekam-ko'st ta'minlab qo'yadi.

Har safar Yangi yil bayrami arafasida esa «Tong yulduzi»ga yillik obuna bo'lganimiz haqidagi qog'ozni qo'limizga tutqazadi. Ana o'shanda quvonchimizni bir ko'rsangiz edi! Bobomiz a'lo baholarga o'qiydigan nabiralarni hamisha rag'batlantirib turadi. Ularni quvontirish uchun doimo a'lo baho olishga harakat qilamiz.

Gazetalaridan birida, «Murtazo Sultonov o'z kasbining fidoyisi, maorifimiz rivojiga munosib hissa qo'shgan inson», deb yozilgan satrlarni o'qiganimizda, ko'nglimiz iftixor tuyg'usi bilan to'ldi. «Xotira va qadrlash kuni» bayramida biz nabiralarni bobomiz va buvimizni qutlagani boramiz. Har doimgidek jo'r ovozda ularni muborakkob etamiz.

Latifa va Javohir BILOLOVLAR, poytaxtimizdagi 103-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi o'quvchilari



Bolalar yozuvchisi bo'lish sharafligi va o'ziga xos mashaqqatli vazifa. Bolalar uchun ijod qilish kishidan katta mahorat talab qiladi. Birgina «Sariq devni minib» kitobi 24 ta tilga tarjima qilingan. «Sehrlı qalpoqcha» asari bilan Janni Rodarini hayratga solgan yozuvchi bobongizni yaxshi bilasiz. Shu bois, uning asarlarini nomini sanab o'tirmadik, balki yozuvchining bolalik olamiga sayohat qildik. Bu ibratli hayot yo'li yoshlarni befarq qoldirmasligi, shubhasiz. Sizni ham sayohatimizga taklif etamiz.

## O'TMISHDAN SABOQ CHIQRIB, kelajakka ishonch bilan yashaylik

– Mening bolalik va o'smirlık davrim urush paytiga to'g'ri kelgan, – deb hikoya qiladi O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyev. – Ota-onasiz, yetim qolgan hamqishloqlarimning o'kinch va armonlarini eshitganman. O'g'lidan qoraxat kelgan onalarning faryodlariga guvoh bo'lganman. Akasini intizor kutayotgan singillarning, eridan bevaqt judo bo'lgan yosh-yosh juvonlarning pinhoni ko'z yoshlarini ko'rganman. O'gay otam – usta Abduqodir aka ishchi batalonga ketgach, sakkiz bola chirqillab qoldik. Men ular bilan ko'p bora bir bolalar uyidan boshqasiga ko'chib ulg'aydim.

Sermashaqqat hayot yo'limda menga malham bo'lgan buvim Robiyabining muhim o'rin tutganini alohida aytgim keladi. U kishining ertaklar-yu hikoyalari murg'ak qalbimga taskin berardi. Buvijonim menda so'zga bo'lgan muhabbatni uyg'otgan.

– Maktab yoshiga yetib, o'qishga borgan kunlarimni eslasam, hozirgi yoshlarga havasim keladi, – deydi yozuvchi o'ziga cho'mgancha. – U paytlarda biz portfel nima ekanini bilmaganmiz. Oddiy gazlamadan tikilgan xaltada dovot-siyohdon, uchiga pero qistiirilgan ruchka bo'lardi. Bir xonada ikkita sinf uchun doskani ikkiga bo'lib dars o'tilardi...



Maktabni bitirgan yilimiz Mehmonali Tursunov degan domlamiz to'rtta o'quvchini Qo'qon pedagogika bilim yurtiga o'qishga olib borishini aytdi. 36 chaqirim joyga aravada beshovlon yo'lga tushdik. Eshon qishlog'iga yetganimizda, oramizdagi yoshi kattaroq, Mahmudjon ismli sherigimiz: «Bizlarni o'qishga emas, urush bo'lgan joylardan qurollarni yig'ib olishga olib ketyapti», – deya aravadan tushib, qochib qoldi. Uning gapiga ishonib, biz ham urra qochdik. Mehmonali aka orqamizdan quvlab, Katta Farg'ona kanali ko'prigi ustida bizga yetib oldi. «Bolalarim, nega sizlarni urushga olib boray, mening o'mimga o'qituvchi bo'ling» deb, yig'lab yubordi. Biz aravaga qaytdik. Bilim yurtiga yetib kelib, qabul qilindik. Uch kun Mehmonali aka biz bilan bo'ldi. Har kuni bittadan non sotib olib berardi. To'rtinchi kuni osh damlab berib, o'qishimiz zarurligini qayta-qayta aytib, so'ngira qishloqqa qaytdi.

O'sha yillari Muqimiy she'rlari, Chustiydan «Vafo»ni yodlab olganman. Bora-bora o'zim ham she'r yozishni mashq qila boshladim. Hatto, bir she'rim talabalar orasida qo'shiq bo'lib ketdi.

O'qib yurgan kezlarnimiz Qo'qondan qishlog'imgacha piyoda kelgan kunlarimiz ko'p bo'lardi. Oliy o'quv yurtini bitirdim, o'qituvchilik, jurnalistik faoliyatim boshlandi. 300 dan ortiq felyetonlarim chop etildi. 1958-yildan esa badiiy ijodga kirib keldim. Bolalar adabiyoti meni ohanraboday o'ziga tartardi. Men bu yo'lda imkon qadar xizmat qilishga harakat qildim.

Darhaqiqat, o'z asarlari bilan necha avlod bolalarining mehrini qozongan Xudoyberdi akaning hanuz g'ayrati ichiga sig'maydi. Uchrashuvlarga, tadbirlarga borishdan erinmaydi. Bu uchrashuvlarda o'quvchilarni a'lo o'qish, sport bilan shug'ullanish, kitob bilan do'st bo'lish va bu ajoyib kunlarning qadriga yetishga da'vat etishdan charchamaydi.

Zero, xalq tarixi, taqdirining badiiy ifodasi sifatida adibimiz yaratgan qahramonlar bolalarning sevimli maslakdoshi va maslahatgo'yiga aylanib, yangi-yangi avlodlarga xizmat qilishda davom etaversin.

Suhbatdosh Nodira NAZAROVA

## DEVORDAGI SURAT



Har safar buvimnikiga borganimda, uy to'rida harbiy kiyimdagi askarning suratiga ko'zim tushadi. Surat tagida eski ro'molchaga tugilgan bir kaftgina tolqon osilib turadi.

Buivimdan bu askar kimligini so'raganimda, «Bu eng katta tog'ang bo'ladi, mening akam, – dedilar. – Urushning suronli yillarida jangga ketib, qaytmagan... Akamdan qoraxat kelganida, sen tenggi qizaloq edim. Uyimizda odamlar to'plangan, onamning tobi bo'lmay qolgandi. Chunki akam yolg'izgina o'g'il edi-da... U chiroyli she'rlar yozardi, she'r daftarini negadir bizdan berkitib yurardi. O'qituvchi bo'lishni orzu qilardi. O'shanda endigina o'qishga kirgan edi, keyin boshqa qishloqdoshlarimiz singari urushga otlandi. Oradan ikki yil o'tib, undan qoraxat keldi. Ungacha bizga turli joylardan quroldosh do'stlari bilan tushgan rasmlar, xatlar jo'nataridi. Akamdan menga mana shu surat, tishlagan nonidan urvoqlargina yodgorlik bo'lib qolgan, xolos...»

Har gal shu so'zlardan so'ng buvijonimning ko'zlarida yosh aylanadi.

– Buvijon, tog'amning nomi «Xotira maydoni»dagi kitobda bor, men sizni, albatta, o'sha yerga olib boraman...

Bu gapimdan buvimning chehrasi yorishib ketdi. Suratni devordan asta olib, yuzini mehr bilan qayta-qayta siladilar. Xuddi mengamas, ularga gapirayotgandek, «qaniydi, borolsam», deb qo'ydilar. Men suratdagi kiyimi o'ziga yarashib turgan askarga jilmayib boqarkanman, bayram arafasida buvijonim bilan bobojonimni «Xotira maydoni»ga olib borishni ko'nglimga tugib qo'ydim.

Ogina **TURSunBOYEVA**, poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 96-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi

## MATONAT SARCHASHMASI

Ajdodlarimizda qadim zamonlardan boshlab umuminsoniy g'oyalar teran aks etib kelgan. Tarixga nazar salsak, eng og'ir paytlarda ham o'zining insoniy qiyofasini yo'qotmagani, g'ururini qo'ldan boy bermagani yaqqol aks etadi.

Hayotning eng qiyin damlarini ham sabr-bardosh bilan yengib o'tgan, Vatan ravnaqi yo'lida ko'plab insonlar fidoyiligining guvohi bo'lamiz. Bobolarimizning mardlik va jasoratlarini xalqimiz xotirasidan hech qachon o'chmaydi.

Men buvim bilan suhbatlashganimda, hozirgi kunimizga beadad shukronalar aytadi. Birgina Laylak uya qishlog'imizdagi o'zgarishlarni misol qilib, bularning barchasi Mustaqillik tufayli, deb qayta-qayta ta'kidlaydi.

Men buvimning so'zlaridan doimo o'zgacha shijoat, kuch olaman. Biz yoshlar keksalarning holidan xabar olib, ularning og'irini yengil qilishimiz, pand-nasihatlarini qalbimizga muhrlab olishimiz zarurligini his qilaman.

Husan **XOLBOYEV**, Jizzax viloyati, Zomin qishloq xo'jaligi va maishiy xizmat ko'rsatish kasb-hunar kollejining 2-bosqich o'quvchisi

## KITOB – MA'NAVIYAT BESHIGI

Kitob... U misoli oftob. Uni o'qish, asrab-avaylash, o'qiganlarimizning ma'nosini, mag'zini chaqish har birimiz uchun kundalik odatimizga aylanishi kerak.

Kitob ma'naviyatimizni boyituvchi, komillikka eltuvchi, yaxshini yomondan ajratishga ko'maklashuvchi, ruhiyatimizni ko'taruvchi bebaho boylik. Buyuk yozuvchilar, shoirlar, mutafakkirlar ham juda ko'p kitob mutolaa qilishgan, tinmay o'qib, o'rganishgan. Kitobdan olgan chuqur bilimlari tufayli hayotda o'zlarining munosib o'rinlarini topishgan. «Kitob – bilim kaliti», «Kitob – bilim bulog'i, o'quvchining o'rtog'i», «Kitob – oftob» kabi maqollarda hayotda kitob o'qishning nechog'li muhim ahamiyatga ega ekanligining isbotidir. Shu bois kitob o'qish mening ham jon-u dilim. Xudoyberdi To'xtaboyev, Erkin Malik, Said Ahmad, Chingiz Aytmatov, Jyul Vern, Mark Tven, Ferdinand Dyushenning barcha asarlarini, shuningdek, ertak kitoblarni sevib mutolaa qilaman. O'qigan kitoblarni ro'yxatini yanada ko'paytirmoqchiman.

Aziz tengdoshlarim, siz ham kitob bilan do'st tutining. Zero, kitob o'qigan o'quvchi ma'rifati, ma'naviyatli bo'lib voyaga yetadi.

E'zozaxon **USMONXO'JAYEVA**, poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 34-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi

**O'quvchilik yillarim Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumanining chekka bir maktabida kechgan. Esimda... Har bir ishda faol ustozim Tursunboy Temirov sira tinib-tinchimasdilar.**

## USTOZ HAQIDA SO'Z...

O'zlari til va adabiyot fani o'qituvchisi bo'lishlariga qaramay, bir qarasangiz, qo'llariga rubob olib musiqachi, yana bir qarasangiz hisobchi, rassom, hatto shoirga ham aylanib ketardilar.

Ular o'zbek shoir va yozuvchilarining siymolarini chizib, tagiga to'rt qator she'r yoki sitatalar keltirar edilar... Balki o'quv qurollari yetishmasligi tufayli shunday qilishga majbur bo'lgandirlar...

Ustozim haqida yozar ekanman, o'sha vaqtlarda bizga saboq bergan muallimlar bir-bir ko'z o'ngimdan o'tadi... Domla Qayumjon Jambulov, Mashrabboy Kamolov, Zoya Garipovna, Mamatxon Domla, Madamin domla, Tolibjon domla, Abrorxo'ja domla... ehe, ularning bari bag'ri keng inson edilar.

Ishlar bilan bo'lib, vaqtida ustozlar holidan xabar ololmasdik. Tursunboy domla qachonki, o'zlari telefon qilib, «Gazetada she'rim chiqibdi, o'qidilaringmi?» deb qolsalar, darrov yugurgilab, chala-chulpa o'qigan bo'lib, «o'qidik, zo'r chiqibdi», desak-da, baribir ustoz o'zlari telefon orqali yangi she'rlarini qayta o'qib berardilar.

Bir kuni ustozning toblari yo'qligi haqida xabar topdim va uylariga o'tdim. Serg'ayrat, doim quvnoq kishi ma'yus nigohlarini ko'kka

qadagancha, allanechuk bir ahvolda yotardi...

Ertasi kuni ustoz haqida chiroyli bir maqola yozib, u kishiga qo'ng'iroq qildim:

— Maqola biron hafta ichida chiqib qolar, ungacha sizni dala hovlimga olib ketaman, o'sha yerda, bir piyola choy ustida yonboshlashib birga o'qiyamiz...

— UZR, Nazirjon, men bora olmayman, sababi, safar qaridi chog'i...

Gaplarini aniq eshitgan bo'lsam-da, — Nima, yana bir qaytaring o'sha gapni, — dedim o'zimga ishonmay. Ustoz yana takrorladilar...

Bu suhbatdan g'alati holga tushib, gazeta muharriri oldiga oshiqdim. Ammo, ming afsuski, maqolani tezroq chiqarishning iloji bo'lmadi. Bu narsa bir umrlik armon bo'lib qoldi...

...Ko'p o'tmay, qorli kunlarning birida ustoz bu dunyoni tark etdilar...

...Azizlar, keling, bir-birimizga mehr-oqibatli bo'laylik, bir-birimizning holimizdan tez-tez xabar olib turaylik, zero, bu dunyoda barchamiz bir-birimizga g'animat ekanimizni unutmaylik!

**Nazirjon SHERALIYEV, mehnat faxriysi**

## SAMOLARGA BO'YLAR VARRAGIM

Kuni kecha «Barkamol avlod» respublika bolalar texnik ijodiyot markazi tomonidan poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 43-bolalar va o'smirlar sport maktabida «Samo bilan bo'ylash varragim!» respublika varraklar musobaqasi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «Vatanparvar» tashkiloti Markaziy Kengashi, Respublika texnik va amaliy sport turlari markazi hamda Chilonzor tuman bolalar sportini rivojlantirish jam'armasi ko'magida tashkil etilgan musobaqani o'tkazishdan maqsad, o'quvchi-yoshlarni jismoniy tarbiya va sport-texnika to'garaklariga jalb etishni ta'minlash, iqtidorli bolalar iste'dodini yuzaga chiqarishga qaratildi.

Viloyat miqyosida g'oliblikni qo'lga kiritgan o'quvchilar yakuniy respublika bosqichida «Varrak», «Laylak» hamda «Hajmli varrak» turlari bo'yicha bellashdilar.

O'zgacha zavq bilan bo'lib o'tgan musobaqa yakuniga ko'ra, umumjamoa hisobida poytaxtimiz o'quvchilari 1-o'rinni qo'lga kiritishgan bo'lsa, 2-o'rin Namangan viloyati yoshlariga nasib etdi. 3-o'ringa esa



surxondaryolik o'quvchilar munosib ko'rildi.

Bellashuvning «Varrak» turi bo'yicha Andijon shahridagi 41-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Abdumotal Yo'ldoshevga teng keladigani topilmadi.

«Laylak» turi bo'yicha 1-o'ringa Samarqand shahridagi 24-

umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Shahzod Qodirov, «Hajmli varrak» turi bo'yicha bellashgan o'quvchilar orasida Toshkent shahri, Yunusobod tumanidagi 257-umumta'lim

maktabining 6-sinf o'quvchisi Jahongir Saidaliyev barcha ishtirokchilardan ustun keldi.

Barchaga unutilmas zavq ulashgan varraklar sayli so'ngida g'olib o'quvchilarga esdalik sovg'alari topshirildi.

**Jamshid KAMOL**



## IQTIDORLILAR MACKANI

**Namangan shahridagi 1-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internati Istiqlolga tengdosh ta'lim maskanlaridan biridir. Matematika, fizika, kimyo, biologiya, ingliz tili fanlariga ixtisoslashtirilgan ilm maskanida oliy va 1-toifali, o'z fanining fidoyisi, katta tajribaga ega ustozlar saboq berishmoqda. Buning yorqin dalili sifatida har yili an'anaviy tarzda o'tkazilib kelinayotgan fan olimpiadalari va «Bilimlar bellashuvi» natijalarini ko'rishimiz mumkin.**

Joriy o'quv yilida ham bu ko'rsatkichlar maqtovga sazovor. Jumladan, 9-sinf o'quvchisi Otabek Xolmirzayev biologiyadan viloyat fan olimpiadasi g'olibi bo'lsa, 9 nafar o'quvchilar: 5-sinf o'quvchisi Abdusamad Mahmudjonov matematika, 6-sinf o'quvchilaridan Chingiz Dadamirzayev ingliz tilidan, Shahnoza Ikromiddinova biologiyadan, 7-sinfdan Nozim Ummataliyev biologiyadan, Javohir Sharobiddinov fizikadan, 8-sinf o'quvchilaridan Hayotbek Inomjonov biologiyadan, Munisa

Mahmudjonova kimyodan, Muhammadqodir Egamberdiyev fizikadan, Abdulaziz Yoqubjonov huquq fanidan «Bilimlar bellashuvi»ning shahar bosqichida g'olib bo'lib, tanlovning viloyat bosqichiga qizg'in tayyorgarlik ko'rishmoqda.

Maktabdagi iste'dod egalaridan biri, 9-«A» sinf o'quvchisi Muslimbek Olimjonovning «Osmonda yuraman», «Yaxshilik

ostonasi» hamda «Yetilgan ayyom»lar nomli she'riy kitoblari nashrdan chiqdi. O'quvchilarning sport sohasida erishgan yutuqlari ham salmoqli. Joriy yilda

Abdulaziz Habibullayev, Ismatulla Yusufjonov va Bobur Abdujabborovlar Navro'z bayramiga bag'ishlab o'tkazilgan viloyat chempionatida karate bo'yicha oltin medal bilan taqdirlandi.

Muassasada qo'lga kiritilayotgan muvaffaqiyatlar zamirida qo'shimcha mashg'ulotlarning yaxshi yo'lga qo'yilganligi, ustozlardan Rasuljon Izzatullayev, Abdumalik Qo'ziyev, Mahmuda Abdullayeva, Oylarxon Mavrulova, Abdulla Abdurahmonov, Latifjon Nozimovlarning xizmati diqqatga sazovor.

Darhaqiqat, ustozlarning kelajak avlod haqida qayg'urishi, iqtidorlilarga qanot bag'ishlayotgani quvonarli holdir.

**Nozima QUDRAT qizi**



# JAJJ QALBLAR SADOSI

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda qator mutasaddi tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan «Navro'z sadolari» musiqa festivalida sharqona milliy ohanqlar, turli xalqlarning go'zal va betakror kuy-qo'shiqlari yangradi.

Bu nufuzli festival dunyo xalqlarining milliy musiqa san'ati va qo'shiqchilik an'analarini asrab-avaylash va rivojlantirish, tili, madaniyati, urf-odatlari turli bo'lgan millat va elatlarni o'zaro birlashtirib, ezgulikka oshno etishga xizmat qiladi.



– Jamoamiz festivalda ilk bor ishtirok etmoqda, – deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Ellikqal'a tumanidagi 18-bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchisi Abdulla Gulimov. – Festivalga milliy va jahon kuylarini tayyorlab keldik.

Mazkur festivalga Qoraqalpog'iston Respublikasi, barcha viloyatlar hamda poytaxt musiqa va san'at maktablarining jamoalari, qo'shni Tojikiston va Qirg'iziston Respublikalaridan saralangan 3 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan mingdan ziyod ishtirokchilar qatnashishdi.

– Ushbu tanlovda ilk bor qatnashib, 2-o'ringa munosib topildik. O'quvchilarim bundan nihoyatda xursand, – deydi Andijon viloyatidagi 7-maxsus musiqa va san'at maktab-internati «Shodlik» musiqa ansambli rahbari Dilnoza To'xtasinova.

Tadbir doirasida milliy cholg'ular ijrochiligi va dirijyorlik ishiga bag'ishlangan xalqaro konferensiya, mahorat darslari va jamoalar ishtirokida gala-konsert bo'lib o'tdi.

G'oliblar diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Navro'z NORBOBOYEV

Kuni kecha Milliy matbuot markazida «O'zbekiston Respublikasida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishning dolzarb vazifalari» mavzusida matbuot anjumani bo'lib o'tdi.

## SAMARADORLIK OMILI

Soha mutaxassislari ishtirok etgan mazkur tadbirda respublikamiz umumta'lim maktablari o'qituvchilarining darslarga ijodkorlik bilan yondashishini ta'minlash, boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatiga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish masalalari muhokama qilindi. Anjuman avvalida qatnashchilar poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 300-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabida boshlang'ich sinflaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni bilan yaqindan tanishishdi.

Anjumanda joylardagi boshlang'ich ta'lim mutaxassislarining malakasini oshirish bo'yicha tayanch maktablari aniqlanib, soha xodimlarining o'zaro tajriba almashishlariga imkoniyat yaratish, mamlakatimizdagi o'n sakkizta oliy ta'lim muassasasi pedagoglari mazkur maktablarda tinglovchilarga o'quv mashg'ulotlari olib borishlarini ta'kidlandi. Shuningdek, berilayotgan bilim monitoringini muntazam yoritib borish maqsadida «Ziyo NET» tarmog'i yordamida hamkorlik pedagogikasini rivojlantirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'limni takomillashtirish muammolari xususida so'z bordi.

Nurbek NURALI o'g'li

## Lesson 34

### ETERNAL VALUES

(Boqiy qadriyat)

On the 9th of May Uzbekistan observes the memorial Day, the holiday of warm sadness, reverent respect, pride and profound gratitude.

In Tashkent, the center of festivities in the Independence Square, where the Alley of Fame and Memory is located.

### CHECK YOUR VOCABULARY KNOWLEDGE

(Bilimingizni sinab ko'ring)


Write the following words under the correct heading.

Mathematics	Tuesday	uncle	brown	biology
Monday	history	white	cloudy	Thursday
Aunt	literature	frost	microwave	chemistry
Pink	nephew	radio	grandson	refrigerator
Computer	sunshine	orange	mother tongue	Wednesday

Week days	School subjects history	Relatives
Colors	Weather words	Technics

### DO YOU KNOW THIS?

(Bilasizmi?)



- |           |     |
|-----------|-----|
| Head      | 1   |
| Shoulders | ... |
| Arm       | ... |
| Face      | ... |
| Eyes      | ... |
| Hair      | ... |
| Mouth     | ... |
| Nose      | ... |
| Foot      | ... |
| Stomach   | ... |
| Ear       | ... |

Dinora SHAKIROVA tayyorladi

### WITTY TRAINING

(Zukkolik mashqi)

Make these words correctly:

- |             |       |              |
|-------------|-------|--------------|
| False       | true  | translation  |
| 1. Weahs    | shawl | katta ro'mol |
| 2. Lisk     |       | shoyi        |
| 3. Oponch   |       | chopon       |
| 4. Hakuus   |       | kovush       |
| 5. Pudip    |       | do'ppi       |
| 6. Nalotina |       | milliy       |
| 7. Lesthoc  |       | kiyimlar     |




Laylo MANSURJONOVA,  
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi  
4-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

### THE GAME OF «ADJECTIVE+NOUN»

(«Sifat+ot» o'yini)

Complete these circles by using these words: hair, life, period, teeth, swan, stork.



### RIDDLE

(Topishmoq)

It never bothers to wake us up,  
But in any weather and any season,  
We open our eyes, stretch and yawn,  
We rise the moment we see it is risen.

Umida UMAROVA

# SATRLARDA MEHR QUYOSHI

Qalbida borliqqa nisbatan mehr quyoshi nur sochgan ijodkor o'quvchilarimizning rang-barang she'riy dilmolarini o'qiganda, har gal nimanidir kashf etgandek bo'lamiz. Satrlarning quvnoq ohangiga mahliyo bo'lib qolganimizni his etamiz. «Xotira va qadrlash kuni» arafasida ezguliklarni yurakka jo aylab, sog'inch-u quvonchlarini bizga in'om etgan ijodkorlarimizning dillarga xush yoquvchi satrlarini o'quvchilar hukmiga havola etgimiz keldi. Bitganlaringiz mitti yuraklarga ilhom baxsh etsa, ajabmas.

## HAR ZARRASI TILLODAN

Tog'lardan ko'tarib bosh,  
Nur sochar bobo Quyosh.  
Har zarrasi tillo dan,  
Sevinadi har bir yosh.



**DILDA QUVONCHIM OSHAR**

Ertalab turdim ildam,  
Bog'imga zar sochibdi.  
Atirgulum jam bo'lib,  
Qip-qizil gul ochibdi.

Onajonim tabiat,  
Husningga husn qo'shar.  
Daraxtlar gullab qiyg'os,  
Dilda quvonchim oshar.

**Marjona OMONOVA,**  
Qashqadaryo viloyati,  
Yakkabog' tumanidagi  
73-umumta'lim maktabining  
7-sinf o'quvchisi

Maqsadimiz, ahdimiz,  
Yashar barcha baxtiyor.  
Vatanni ardoqlashga,  
Biz yoshlar doim tayyor!

**Maftuna O'ROZOVA,**  
Samarqand shahridagi  
64-umumta'lim maktabining  
6-«A» sinf o'quvchisi

## TA'RIFLASHGA TIL OJIZ

Jahonda go'zal chaman,  
Yashnayapti hur Vatan.  
Ta'riflashga til ojiz,  
Unga qurbon jon-u tan.



Ko'hna tarix bor unda,  
Registon juda zo'r-da.  
Bor yana Shohi Zinda,  
Zeb berib turar bunda.

Xalqi juda mehmondo'st,  
Ham kamtar-u yaqin do'st.  
Barcha narsaga qodir,  
Ona xalqim yashar hur.

**Dina OMONOVA,**  
Surxondaryo viloyati, Denov  
tumanidagi 17-ixtisoslashtirilgan  
umumta'lim maktab-internatining  
7-«A» sinf o'quvchisi

## AXTAMQULI



## BUVIJONIMNI KOTIRLAB

Yurakdan hayqirib yig'lagim keldi,  
Buvimni yo'qotib qo'ydik biz bugun.  
U menga hasaddan yiroq yur derdi,  
Albatta, toleying kuladi bir kun.

Mana, ko'zlarimda tomchi yoshim yo'q.  
Bugun siz aytgandek yig'lamayapman.  
Onam yelkasiga qo'yib boshimni,  
Kuygan yuragimni tig'lamayapman.

Quyosh ham boshimga qulayotgandek,  
Olisdan entikib chiqadi asta.  
Kimlarga ishonib ketdingiz meni,  
O'rtangan dilimni qiliblar xasta.

Bahomi sog'inib entikib oxir,  
O'rik gullariga yetdi buvimlar.  
Osmondan balandroq bo'lsin ko'ngling, deb,  
Undan-da olisroq ketdi buvimlar.

Uyga borganimda kim kutar meni,  
Boshimni kim silar, quchar ayting kim?  
Savolim javobsiz ko'nglim tutuni,  
Bugun ona yer jim, bugun samo jim.

**Mushtariy MURODJONOVA,**  
O'zDJTU qoshidagi Uchtepa akademik  
litseyining 1-bosqich o'quvchisi

## XAT

Maftunaga yozdim xat,  
Kulib boqdi menga baxt.  
Doim bo'lg'in sog'-omon,  
Egilmagin hech qachon.



Olamshumul voqea,  
Bo'lib turar har onda.  
Senga omad tilayman,  
Uchib yurgin osmonda.

**Munisabonu USMONOVA,**  
Toshkent shahri, Olmazor  
tumanidagi 243-umumta'lim  
maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi

## CHEMPION BO'LGANIMDA

Sport bilan chiniqsang,  
Tanang bo'lar sog'.  
Tong saharda yugursang,  
Kayfiyating chog'.



Badantarbiya qilib,  
Maktabga boring.  
Sportni yaxshi ko'rib,  
Maqsadga yeting.


Men o'zim yosh bo'lsam-da,  
Akamdan o'zolaman.  
Chempion bo'lganimda,  
So'zimni isbotlayman.

**Sarvinoz NARBAYEVA,**  
Qoraqalpog'iston  
Respublikasi,  
Xo'jayli tumanidagi  
28-umumta'lim maktabining  
3-sinf o'quvchisi

Ravshanning ko'zi daf'atan ro'parasidagi qizil va oq rangli ikki eshikka tushdi. Oq eshikka qarab borayotgan edi, kimdir uni qizil eshik sari turtib yubordi.

Ichkariga kirarkan, «Shirinliklar mamlakatiga xush kelibsiz!» degan yozuvni, behisob shirinliklar atrofidagi bolalarni ko'rib, xursand bo'lib ketdi. Shoshqaloqlik bilan u ham qo'lini shirinliklarga cho'zdi. Shokoladli muzqaymoqni og'ziga olib borgan edi hamki, u yo'q bo'lib qoldi. Bu holat qayta-qayta takrorlandi. Shunday mazali shirinliklarni, shokolad va tortlarni yeyolmayotganidan jahli chiqib, atrofiga qaradi. Boshqa bolalar bilan ham xuddi shunday holat bo'layotgandi. Ular ozi-to'zib ketgan, bir-birlari bilan shirinlik talashishardi. Hammayoq betartib edi. Ravshanning bu yerdan tezroq ketgisi keldi, biroq, oyoqlari o'ziga bo'ysunmasdi. Qancha oldinga yurishga harakat qilmasin, orqaga ketaverdi. Bor kuchini to'plab, oq eshik yoniga bazo'r yetib keldi va uni ochib, ichkariga kirib oldi. Oq eshik ichkarisida ham shirinliklar juda ko'p edi. U yerdagi bolalar bir-birlariga nihoyatda mehribon edilar, ust-boshlari ozoda, hammayoq saranjom-sarishta edi.

E'tiborlisi, bolakaylar o'zlari shirinlik yemay, uka-singillariga ilinishardi. O'z navbatida, uka-singillari ham aka-



opalariga mehr bilan shirinlik uzatishardi. Bir-birlarini siylayotgan bolalarni ko'rgan Ravshan hayron qoldi va shu tobda kimdir: «Sen qizil eshikka kirishing kerak», deb uning qo'lidan torta boshladi. U esa: «Yo'q, yo'q, qizil eshikka kirmayman», deya ovozi boricha baqirardi.

Terga botib ketgan Ravshan o'zining tovushidan cho'chib, uyg'onib ketdi. Yaxshiyamki, tushi ekan. Shu tobda kechagi ishi yodiga tushdi: maktabdan kelishi bilan muzlatkichdagi tortdan katta bo'lagini kesib, mazza qilib yeb oldi. Ko'chada biroz o'ynab kelib, yana yedi. Kechga yaqin esa, «Ukam tort yemasa ham bo'ladi», deya unga qoldirgan bo'lagini ham paqqos tushirdi. Shular haqida o'ylar ekan, qizg'anchiqligidan uyaldi va endi bunday qilmaslikka qaror qildi. Chunki ko'rgan tushi unga saboq bo'lgan edi.

**Feruza SOYIBJON qizi**



Sitorabonu Ismatova Buxoro shahridagi 39-bidisoslashtirilgan umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi. Biologiya, ingliz tili va jismoniy tarbiya darslari uning jon-u dili.

## Yorqin yulduz shu'lasini

Sitorabonu Ismatova joriy yilda Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori bo'ldi



Sitorabonu sportning badiiy gimnastika turi bilan muntazam shug'ullanishi natijasida bir necha bor shahar va respublika miqyosidagi musobaqalarda g'olib bo'ldi.

2010-yilda Buxoro shahrida «Bolalarni himoya qilish kuni»ga bag'ishlangan musobaqada 2-o'rinni egallagan bo'lsa, bir yildan so'ng 1-o'rinni qo'lga kiritdi. 2012-yil Toshkent shahrida o'tkazilgan «Moviy gumbaz» xalqaro turnirida faxrli o'rinni egallab, shu yilning o'zida Bekobod shahrida bo'lib o'tgan «Olimpiada umidlari» respublika turnirida 1-o'rin, Navoiyda «Umid nihollari» sport musobaqasida 1-o'rinni qo'lga kiritdi. 2013-yil Buxoro shahrida «Obod turmush yili» munosabati bilan tashkillashtirilgan turnirda 1-o'rin, 2013-yil Navoiy shahrida o'tkazilgan ochiq birinchi 2-o'rinni egalladi.

Gimnastikachi o'tgan yili Buxorodagi viloyat ochiq chempionatida faol qatnashib, Termiz shahrida o'tkazilgan respublika final bosqichida «To'p bilan» 2-o'rin, «Halqa bilan» 2-o'rin va umumjamoa mashqlarida 3-o'rinni egalladi. 2014-yil kuz oyida Samarqand shahrida bo'lib o'tgan «O'zbekiston kubogi»da 1-o'rinni zabt etdi.

Bilimdon, intiluvchan yosh sportchining xalqaro maydonlardagi yutuqlarini kutib qolamiz.

NURBEK

Joriy yilning mart oyida Tailandning Bangkok shahrida Sharq yakkakurashlari va jang san'ati bo'yicha Butun jahon o'yinlari hamda ochiq chempionati bo'lib o'tdi.

## QIZIQISH QAT'IY MAQSADGA AYLANDI

Dunyoning 60 ta davlatidan 500 nafarga yaqin sportchilar qatnashgan musobaqada yurimiz sharafini himoya qilgan jet-kun-do ustalari yakunda 12 ta oltin, 1 ta kumush va 2 ta bronza medallarini qo'lga kiritgan holda umumjamoa hisobida Hindistondan keyin 2-o'rinni egallashdi.

Musobaqada 37 kg. vazn toifasida oltin medalni qo'lga kiritgan 10 yoshli umidli sportchimiz Kamoliddin Akmalov bilan suhbatlashdik:

- Avvalo, ulkan g'alabalar bilan tabriklaymiz!
- Rahmat.
- Jet-kun-do sport turiga kirib kelishingiz haqida bilmochi edik.

- Bu sport turi bilan shug'ullanayotganimga endigina olti oy bo'ldi. Sportchi, kino aktyor va jet-kun-do asoschisi Bryus Lining faoliyatiga judayam qiziqaman. Uning ijrosidagi filmlarni qoldirmasdan ko'raman. Chunki uning abjir xatti-harakatlari menga o'zgacha zavq beradi. Shu sabab bu sport turini tanlaganman.

- Oilangizdagilar bu qaroringizni qanday qabul qilishgan?

- Boshida otam, men seni futbol bilan shug'ullanib, taniqli futbolchi bo'lishingni xohlayman, dedi. Lekin men o'z qarorimda qat'iy turib oldim. Nihoyat, otam meni poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi «Fitness Planet» klubiga olib bordi. U yerda Sergey Stefanov qo'l ostida mashg'ulotlarga kirishdim.

- G'alabangiz sharafiga davlatimiz bayrog'i ko'tarilib, madhiyamiz yangraganida, ko'nglingizdan nimalar o'tdi?

- O'sha onlarda bexosdan ko'zlarimdan yosh chiqq boshladi. O'zim ham nima bo'layotganini tushunmadim. Oradan bir necha daqiqa o'tgach, imkoniyatni boy bergan raqiblarim meni tabriklay boshlashdi. Shunda ich-ichimdan Vatan tuyg'usini his etdim.

- Kelajkdagi orzularingiz?

- Orzum bitta - u ham bo'lsa, yurtimning nomini butun dunyoga yanada taratish.

Shoh MUHAMMAD suhbatlashdi



## USTOZLAR BELLASHUVI

Sportning mini-futbol turi nafaqat yoshlar o'rtasida, balki maktab o'qituvchilari o'rtasida ham ommalashib bormoqda. Ustoz va murabbiylarning o'zaro sport musobaqalarini uyushtirishi o'sib kelayotgan yosh avlodga ibrat maktabini o'tamoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Jizzax viloyati, Arnasoy tumaniga qarashli bolalar va o'smirlar sport maktabida tuman XTMFMT va TE bo'limi, talim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi hamkorligida «Sport-salomatlik va farovon hayot sari» shiori ostida mini futbol, velomarafon bo'yicha



musobaqa bo'lib o'tdi. 21 ta umumta'lim maktablar jamoalari ishtirok etgan mazkur musobaqada xalq ta'limi bo'limi jamoasi 1-o'rin, 10-umumta'lim maktabi jamoasi 2-, 4-ta'lim muassasasi 3-o'rinni egallashdi.

Velomarafon bo'yicha erkaklar bahsida tuman Iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji 1-o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, ayollar o'rtasida 22-umumta'lim maktabi jamoasi birinchilardan bo'ldi. Ushbu bellashuvda 22-umumta'lim maktabi pedagoglaridan Sojida Razzoqova va Botir Abdunaimov «Eng keksa o'qituvchi» nominatsiyasi g'olibi bo'ldi.

O'z muxbirlarimiz

## NURJAN XORAZMGA BORADI

Nurjan Serikov - Navoiy viloyatining Konimex tumanidagi 8-bolalar va o'smirlar sport maktabi tarbiyalanuvchisi. Mana, olti yildirki, Qurban Karabayev murabbiyligida boks bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda.

Nurjanning ilk g'alabasi 2010-yilda Navoiy shahrida o'tkazilgan boks bo'yicha viloyat birinchi ligaga to'g'ri keladi, o'shanda u musobaqada 2-o'rinni egallagan edi. Hozirgi kunga qadar sportchi to'rt karra viloyat chempioni bo'ldi. Bundan tashqari, o'tgan yillarda Chust va Jizzax shahrida bo'lib o'tgan respublika turnirlarida 2-o'rinni egallagan. Sal o'tmay, Angren shahrida bo'lib o'tgan o'smirlar o'rtasidagi O'zbekiston kubogida 3-o'rinni egallab, mamlakat o'smirlar terma jamoasiga qabul qilinganligi nafaqat sport maktabining, balki tumanning yutuqi bo'ldi.

U o'tgan yili Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli shahrida bo'lib o'tgan xalqaro turnirda 3-o'rinni egalladi.

Hozirda tumandagi 2-umumta'lim maktabining 9-«B» sinfidagi ta'lim olayotgan umidli yosh sportchi mazkur oyda Xorazm viloyatida o'tkaziladigan «Umid nihollari - 2015» musobaqasining respublika bosqichiga puxta hozirlik ko'moqda.

Shukrulla G'ULOM



**«Onajonim tabiat» insholar va rasmlar tanloviga**

Angren shahri Qurama va Chotqol tog' tizmalari bag'rida, Ohangaron vodiysining yuqori qismida joylashgan.

Shahrimiz va uning atrofidagi tabiat boriladi. Ekologik muammolar yechimi, yoshlarning ularga ta'siri haqida suhbatlar o'tkaziladi. Har oyda o'lkashunoslik muzeyiga, tarixiy qadamlarga, diqqatga sazovor maskanlarga sayohatlar uyushtiriladi. To'garak rahbari tomonidan tez-tez tabiatga bag'ishlangan she'rlar, insholar, rasmlar, fotosuratlar, ko'rgazmali qurollar tanlovi o'tkazilib turiladi.

**SHAHRIM JAMOLI**

manzaralari ko'zni quvontiradi. Ayniqsa, Yangiobod dam olish maskani, tog'oldi mahallalari, Ko'lbuloq manzilgohi o'zgacha tarovatga ega. Shuningdek, Angren shahri va Farg'ona vodiysi oralig'ida joylashgan Aroshom bobo ziyoratgohining havosi, suvlari inson salomatligi uchun juda foydali hisoblanadi.

Bizning to'garak a'zolari «Tong yulduzi» gazetasida e'lon qilingan «Onajonim tabiat» insholar va rasmlar tanlovi» da ham faol ishtirok etish harakatida. Ularning yaxshi natijalarga erishishlariga ishonaman.

**Nodir TURDIQULOV,**  
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi 5-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi



**Adiba CHORIYEVA,**  
Surxondaryo viloyati, Sho'rchi tumanidagi 21-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi



**Anvar MARDIYEV,**  
Samarqand viloyati, Narpay tumanidagi 37-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

**Otabek BAKIROV,**  
Toshkent viloyati, Angren shahridagi 27-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

**TABIATNING SIRLI JILOSI**

Bilim maskanimizda o'quvchilarning olgan bilimlarini har tomonlama mustahkamlash borasida turli tadbirlar o'tkazilishiga katta e'tibor beriladi.

Ayniqsa, o'quvchilar orasida o'tkazilgan savol-javob kechalari, «Intellektual ring», «Bilimdonlar bahslashganda», «Tabiatning o'zi tabii» kabi o'ndan ortiq tadbirlar, qiziqarli musobaqalar barchamizni bilimdonlikka, topqirlikka, chaqqonlikka o'rgatadi. Shuningdek, «Inson va tabiat», «Tabiatning inson hayotida tutgan o'rni», «Tabiat – bizning onamiz» mavzularidagi davra suhbatlari bizlarni ona tabiatni sevishga, uning boyliklarini asrab-avaylashga undaydi.

Tadbirda faol qatnashgan o'quvchilar doimiy ravishda maktab ma'muriyati tomonidan faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan rag'batlantirib boriladi.

**Gulnoza XALILOVA,**  
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 51-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi

**24 YILLIKKA TUP KO'CHAT**

Men Vang'oz qishlog'idanman. Xalq orasida qishlog'imiz tarixiga oid juda ko'p afsonalar yuradi.

«Bir ayolning 3 nafar o'g'li bo'lgan ekan. Ular urushga ketib, ikkitasi halok bo'libdi. O'g'illarini kuta-kuta onaizor og'ir xastalikka chalinib, vafot etibdi. Oradan vaqt o'tib, uchinchi o'g'il urushdan sog'-omon qaytibdi. Uni ko'rgan odamlar, «Vay, g'ozni», ya'ni «U g'olib», deb olqishlashibdi. Keyinchalik «Vay g'ozni» so'zi xalq tilida Vang'oziga aylanib ketgan ekan. O'tgan yili qishlog'imiz respublikada «Eng obod mahalla» nomini oldi. Ona tabiatning sofligini, tozaligini asrash maqsadida, sinfdoshlarimiz bilan birga «Mustaqillikning 24 yilligiga 24 tup ko'chat» aksiyasida faol ishtirok etdik va bizga birlashtirilgan maydonchaga mevali, manzarali ko'chatlar o'tqazdik. Biologiya o'qituvchimizning aytishlaricha, archa, yong'oq ko'chatlari zaharli gazlarni, mikroblarni yo'q qilish xususiyatiga ega ekan. Maktabimiz yo'l yoqasida joylashgani sabab bu ko'chatlardan ko'proq ekanmiz. Kun ora navbat bilan ularning tagini yumshatib, yosh nihollarga suv quyib turamiz. Bugungi kunda maktabimiz hovlisida jami 112 tup archa, 75 tup mevali ko'chatlar gurkirab turibdi.



**Azizabonu HAYDAROVA,**  
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi 12-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi

**BO'SH O'TIRIMAY, BOSH QOTIR!**

Aziz o'quvchilar, har bir qatorda yettitadan so'z yashiringan. Tartibsiz joylashgan bo'g'inlarni bir-biriga moslab qo'shib, ularni toping.

1. mak - ko'l - tab - ka - xo - jo' - ri - tub - ta - at - bi - bib - sum - bas = 7 ta so'z.

2. tosh - hor - oy - na - ba - qa - soz - da - an - raxt = 7 ta so'z.

3. qay - qa - moq - yiq - la - gan - sar - chi - sa - oy - roy - ta - rosh = 7 ta so'z.

4. ko'z - nak - oy - gu - mun - choq - bol - gurt - ta - din - ari - ta = 7 ta so'z.

5. gul - do - ka - ram - xan - bar - nish - ba - mand - ra - moq - bob - lit = 7 ta so'z.

**Iqbol MALIKOVA tayyorladi**

**«VULQON» TOBLAMASI**

**Kerakli masalliq:** 200 gramm sariyog', 1 dona tuxum, 30 gramm ketchup, 200 gr. kartoshka pyuresi, 100 gr. yumshoq pishloq, 50 gr. smetana, 300 gr. mol go'shti qiymasi.

**Tayyorlanishi:** qiyma ikkiga bo'linadi, bir qismi sariyog'da pishgunga qadar qovuriladi. Ikkinchi qismiga tuxum chaqiladi. So'ngra issiq qiyma tovaga solinadi, uning ustidan kartoshka pyuresi issiqligida, ustidan tuxum chaqilgan xom qiyma solinadi. O'rtasiga tuxum po'chog'ining yarmi qo'yiladi. Po'choq ustiga ketchup quyilgach, pishloq qirg'ichdan o'tkaziladi. Go'shtli toblama 180 darajada qizdirilgan gaz pechida 25-30 daqiqagacha pishiriladi va ustiga ko'katlar sepiladi. Tayyor toblama sovugach, bo'laklarga bo'linib, dasturxonga tortiladi.

Yoqimli ishtaha!

**NARGIZA tayyorladi**

**«Sayyoh toshbaqa» krossvordining javoblari**  
Bo'yiga: 1. Komiya. 2. Afrika. 3. Nam. 5. Suvarak. 7. Ulamo. 9. Masala. 13. Qalam. 16. Sas. 18. Ola.  
Eniga: 4. Mos. 6. Uy. 8. Olam. 10. Aslo. 11. Malak. 12. Azamat. 14. Sahar. 15. Malika. 17. So'l. 19. Ada.

**8**

**4-may 2015**



**Bosh muharrir**  
**Feruza ADILOVA**

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Omonulla YUNUSOV,  
Abdug'ani XOLBEKOV,  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Murtazo SULTONOV,  
Zoir ISAJONOV,  
Vahobjon RAJAPOV,  
Zikrilla TESHABOYEV,  
Feruza JALILOVA,  
Feruza MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

**Navbatchi**  
**muharrir**  
Dilorom  
HOTAMOVA  
**Rassom**  
Feruzbek  
KAMOL o'g'li

**Manzilimiz:**  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz  
**Tel./faks:** 244-63-08  
**Tel./faks:**  
(99871) 244-38-10

**«O'zbekiston»**  
NMIUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3, 2 bosma taqob.  
**ISSN 2010-6092**  
**Adadi – 47663**  
**Buyurtma – S 2817**

**Muassislar:**  
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati  
Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.